

## **HOSILANI HISOBLASH QOIDALARI. MURAKKAB FUNKSIYANING HOSILASI.**

**G'afforov Husayn Aliyar o‘g‘li**

[ghusayn@mail.ru](mailto:ghusayn@mail.ru)

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti*

*Matematika va informatika kafedrasи o‘qituvchisi.*

**Xudoyorova Jang‘il**

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti 60110600-*

*Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda hosilani hisoblashning ba’zi qoidalari va murakkab funksiyaning hosilasi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** differensiallash qoidalari, funksiya, hosila jadvali.

Agar  $f(x)$  va  $g(x)$  funksiyalaming har biri hosilaga ega bo‘lsa, u holda quyidagi differensiallash qoidalari o‘rinlidir:

1. Yig‘indining hosilasi hosilalar yig‘indisiga teng:

$$(f(x) + g(x))' = f'(x) + g'(x)$$

2. Ayirmaning hosilasi hosilalar ayirmasiga teng:

$$(f(x) - g(x))' = f'(x) - g'(x)$$

3. O‘zgarmas ko‘paytuvchini hosila belgisidan tashqariga chiqarish mumkin:

$$(cf(x))' = c * f'(x)$$

$c$  - o‘zgarmas son.

4. Ko‘paytmaning hosilasi:

$$(f(x) * g(x))' = f'(x)g(x) + g'(x)f(x)$$

5. Bo‘linmaning hosilasi:

$$\left(\frac{f(x)}{g(x)}\right)' = \frac{f'(x)g(x) - g'(x)f(x)}{(g(x))^2} \text{ bunda } g(x) \neq 0$$

**Misollar:** Funksiyalaming hosilasini toping:

$$1) f(x) = \sin x; 2) f(x) = \cos x; 3) f(x) = \operatorname{tg} x.$$

1) Ayirmali nisbatni topishda sinuslar ayirmasini ko‘paytmaga keltirish formulasidan foydalanamiz:

$$\frac{\sin(x+h) - \sin x}{h} = \frac{2\sin\frac{h}{2}\cos\frac{2x+h}{2}}{h} = \frac{\sin\frac{h}{2}}{\frac{h}{2}} \cos\frac{2x+h}{2}$$

$$h \rightarrow 0 \text{ da } \frac{\sin\frac{h}{2}}{\frac{h}{2}} \rightarrow 1 \text{ va } \cos\frac{2x+h}{2} \rightarrow \cos x$$

ekanini isbotlash mumkin.

Demak,

$$(\sin x)' = \cos x$$

2) Ayirmali nisbatni topishda kosinuslar ayirmasini ko‘paytmaga keltirish formulasidan foydalanamiz:

$$\frac{\cos(x+h) - \cos x}{h} = \frac{2\sin\frac{h}{2}\sin\frac{2x+h}{2}}{h} = -\frac{\sin\frac{h}{2}}{\frac{h}{2}} \sin\frac{2x+h}{2} =$$

$$= -\frac{\sin\frac{h}{2}}{\frac{h}{2}} \sin\left(x + \frac{h}{2}\right)$$

$$h \rightarrow 0 \text{ da } \sin\left(x + \frac{h}{2}\right) \rightarrow \sin x$$

ekanini isbotlash mumkin.

Demak,

$$(\cos x)' = -\sin x$$

3) Hosilani topishning 5-qoidasi hamda shu misolning 1-, 2-qism javoblaridan foydalananib,  $f(x) = \operatorname{tg}x = \frac{\sin x}{\cos x}$  funksiyaning hosilasini topamiz:

$$f'(x) = (\operatorname{tg}x)' = \left(\frac{\sin x}{\cos x}\right)' = \frac{\sin' x \cos x - \sin x \cos' x}{\cos^2 x} = \frac{\cos^2 x + \sin^2 x}{\cos^2 x} = \frac{1}{\cos^2 x}$$

Javob: 1)  $(\sin x)' = \cos x$ ; 2)  $(\cos x)' = -\sin x$ ; 3)  $(\operatorname{tg}x)' = \frac{1}{\cos^2 x}$

Hosilani hisoblashda differensiallash qoidalari va hosila jadvali muhimdir.

**Murakkab funksiya.**  $y = (x^2 + 3x)^4$  funksiyani qaraylik. Agar biz  $g(x) = x^2 + 3x$ ,  $f(x) = x^4$  belgilashlami kirtsak,  $y = (x^2 + 3x)^4$  funksiya  $y = f(g(x))$  ko'rinishini oladi. Biz  $y = f(g(x))$  funksiyani **murakkab funksiya** deymiz.

**Misol:** Agar  $f(x) = x^2$  va  $g(x) = \frac{x-2}{x+3}$  bo'lsa,  $f(g(2))$  ni toping.

**Yechim:**

$$f(g(x)) = \left(\frac{x-2}{x+3}\right)$$

bundan,

$$f(g(2)) = f\left(\frac{2-2}{2+3}\right) = f(0) = 0$$

Murakkab funksiyaning hosilasi uchun ushbu formula o'rinni:

$$(f(g(x)))' = f'(g(x)) * g'(x)$$

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.Azlarov, X.Mansurov "Matematik analiz 1-qism" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1994.

2. I.R.Jo‘rayev, N.A.Karimov “Ba’zi trigonometrik funksiyalarning yuqori tartibli hosilalarini hisoblash uchun rekkurent formulalar” (tezis) Termiz-2023.
3. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений. М.: Гиз.Физ-Мат. Литература. 1958.
4. Эльсгольс Л.Е. Дифференциальные уравнения и вариационное исчисление. М.: Наука, 1965.
5. А.Ф. Филиппов “Сборник задач по дифференциальным уравнениям” М.: Наука, 1979.
6. Oppoqov Y.P., Turg'unov N., G'afforov I.A. Oddiy differentisl tenglamalardan misol va masalalar to`plami(o'quv qo'llanma). Toshkent- 2009.
7. Jo'rayev T.J. va boshq. Oliy. matematika asoslari. 11 tom. - T., «O'zbekiston», 1998. 49
8. Salohiddinov M.S., Nasriddinov G'. Oddiy differentisl tenglamalar. - T., “O'qituvchi”, 1982.
9. Soatov Y.U. Oliy matematika. I jild. - T., “O'qituvchi”, 1992.
10. Minorskiy V.P. Oliy matematikadan masalalar to'plami. - t., “O'qituvch”, 1977.
11. Ergashov S., Komiljonov B., Xalilov M. Differentisl tenglamalarni mexanika va fizikaning ba’zi masalalarini yechishga tadbiqlari // Namangan muhandislik texnologiyalari instituti ilmiy-texnika jurnali 430-433 b
12. М.Д.Халилов, Б.К. Комилжонов. Differentisl tenglamaga olib keluvchi ba’zi masalalar.
13. Journal of Advanced Research and Stability ISSN: 2181-2608 15 19 b.